

## TOHIR MALIKNING "ODAMIYLIK MULKI" ASARINING YOSHLAR HAYOTIDAGI TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Xamrayeva Sitora Xalil qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika yo'nalishi talabasi*

*Tel+998999518522*

*gulinilufar7@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada "Odamiylik mulki" asarida keltirilgan pedagogik g'oyalar, inson kamoloti uchun nurli yo'l bo'la oladigan qarashlar va kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan hikmatlar borasida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *tarbiya, oila, ma'naviyat, insoniylik, madaniyat, to'g'riso'zlik, vafo, mehr-muhabbat, ilm.*

"Odamiylik mulki" Tohir Malik badiiy meroslarining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar diniy-falsafiy ruhda bitilganligi bilan boshqa asarlaridan ajralib turadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchining ta'бири bilan aytilganidek ushbu kitob hayotiy-maishiy voqea-hodisalar aks etgan badiiy asar emas, balki "odobga oid risoladir", ammo badiiylikning go'zal ifodasi asarga shunday singdirilganki, asar qadimda yozilgan pand-nasihati yo'nalishidagi kitoblarni eslatadi. Adib asar muqaddimasini yoritishda Qur'oni Karim oyatlariga, hadislariga, Alisher Navoiy, Imom G'azzoliy kabi buyuk mutafakkirlarimiz hikmatlariga murojaat etadi. Aynan shuning uchun ham bu asarda tarbiyaning barcha jihatlari qamrab olinadi. Barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida, go'zal xulqli etib tarbiyalashda har bir ota-ona va pedagog bu kitobni tanladhi eng to'g'ri tanlov bo'ladi. Chunki kitobning har bir bobida insoniyatni razolat va yovuzlikdan asrab qola oluvchi betakror satrlar guvohi bo'lish mumkin. Ayniqsa, "Husnu xulq" bobida Mavlono Rumiyning shunday jumalari keltiriladi: "Iymon. nedir ?" deya so'radim. U qalb qulog'iga egilib : "Iymon ofobdan iboratdir", deya shivirladi. Bundan ko'rinib turibdiki, inson moddiy jihatdan emas, ma'naviy jihatdan mukarram bo'lgani uchun ruhining pokligi darajasida kamol topishi mumkin. Ma'nau ozuqa olish uchun esa inson ko'proq kitob mutolaa qilishi va o'rganganlariga amal qilishi lozim. Yoshlarda oilaga bo'lgan muhabbatni, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni yoritish uchun "Hurmati volidayn-farz ayn" bobida bir qancha allomalarimiz qarashlari muallifning o'z fikrlari bilan qorishtirilgan, kitobxon qalbiga nur olib kiradigan tarzda bitilgan. Buni muallifning "Ota- onaning farzandiga mehri fitratida-yaralishida bor" degan satrlarida yaqqol ko'ra olamiz.

Jamiyatda oilalar mustahkam emas ekan , bu jamiyat harbiy qudrati va boyligidan qat'iy nazar , halokatga mahkumdur. Oilaviy muhabbat odamlar orasida keng tarqalgan eng mustahkam muhabbatdir. Bola ilk tarbiya va ilmni o'z oilasida oladi. Shu sababli ota-onaning o'xi tarbiyali, ilimli va uzoqni ko'ra biladigan bo'lishi lozim. Bu borada asarda "Quradg'u bilig" dan quyidagi satrlar keltiriladi:

Bolam tutsin desang donolik yo'lin,

Kichiklikdan tegiz bilimga qo'lin.

Asarning "Hiradmand chin so'zdin o'zga demas" nomli bobida fikr va so'zda to'g'ri bo'lish to'g'risida so'z yuritiladi. Bunda to'g'rilik Muso alayhissalomning hassalariga, egrilik esa sehrgarlarning sehriga qiyoslanadi. Rostgo'ylik doimo ulug'lanishi va butun hayotning tirgagi ekanligi aytiladi. Bu orqali yoshlarda haqiqatparvarlik va adolatparvarlik sifatleri shakllantiriladi. Farzand tarbiyasi murakkab vazifa bo'lgani o'laroq, ota-onalardan bu borada juda katta ma'suliyat talab etiladi. Ammo kelajak avlod kamolida nafaqat oila yoki ota-ona balki butun bir jamiyat javobgardir. Bunda esa bizga bu kabi betakror shoh asarlar madadga keladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu risoladagi kabi yondashuv zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyondalaridan birinchilardan bo'lib Tohir Malik ijodida ko'rindi. Adib kitoblari diniy manba bo'lishi bilan bir qatorda, badiiy asar hamdir. Bunday deyishimizga sabab kitobda ijodkor o'zi va zamondoshlari hayotida yuz bergan voqealarni ham kiritib, bularga o'z mulohazalarini ham bildirib o'tadi. Shuningdek, kitobga hayotiy voqealar asosidagi badiiy hikoyatlardan, badiiy asar parchalaridan, she'riy asarlardan misollar kiritilishi hamda asar tilining o'ziga xosligi, sarlavhalardagi she'riy ohang, adabiy tilning badiylashtirilgan ko'rinishi asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan, desak adashmagan bo'lamiz. Kitob mutolaasi jarayonida o'quvchi o'z diniy salohiyatini, bilimlarini oshirish bilan bir qatorda badiiy adabiyotning yuksak na'munasidan ham bahramand bo'ladi. O'zbek adabiy muhitida o'ziga mustahkam o'rin tayyorlagan ushbu risola bir necha davr avlodlarining ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Odamiylik mulki", Tohir Malik, Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi, 2021
2. "Adabiyotshunoslik nazariyasi". Hotam Umurov, "Xalq me'rosi", Toshkent, 2004.
3. "Adabiyotshunoslik nazariyasi". A. Ulug'ov, "G'afur G'ulom", Toshkent, 2017.